



2017 yil yanvar – avgust oylarida amalga oshirilgan qurilish ishlari

2017 yilning yanvar– avgust oylarida Samarqand viloyatida 1445,5 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan 2016 yilning shu davriga nisbatan 83,2 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 87,1 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻsish surʻati 98,5 foizni tashkil qildi.



Jami qurilish ishlarining hajmida kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 48,6 foizni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun moʻljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yoʻllarini taʼmirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha obʼyektlari (maktablar, maktabgacha taʼlim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida oʻz faoliyatlarini amalga oshirmoqda.



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1397,9 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 96,7 foizini tashkil qildi.

va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning o'sish sur'atiga nisbatan 0,1 bandga ko'paydi. Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 47,6 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish montaj ishlari hajmidagi ulushi 3,38 foizini tashkil qildi.



2017 yilning yanvar – iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikda bino va inshootlar qurilishining ulushi 1149,9 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 69,5 foizni tashkil qildi. Davlat mulkchiligidagi ulush esa, 27,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 93,4 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikdagi fuqarolik qurilish ob'yektlarining ulushi 177,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,4 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 17,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 65,1 foizni tashkil qildi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 71,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,8 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 2,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,4 foizni tashkil qildi.